

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TRANSPORT VAZIRLIGI
TOSHKENT AVTOMOBIL YO‘LLARINI LOYIHALASH, QURISH VA
EKSPLUATATSIYASI INSTITUTI**

«Avtomobil yo‘llarini qurish va ekspluatatsiya qilish» kafedrası

«Tasdiqlayman»

“AYQ va EQ” kaf.mudiri

_____ dos.O‘roqov

«_____» _____ 2019 y.

Bitiruv malakaviy ishi

**MAVZUSI: Sirdaryo viloyatidagi 1b toifali M34 “Toshkent-Dushanbe”
(Toshkent-Yangiyo‘l-Chinoz-Sirdaryo-Xovos-Dushanbe, O‘zbekiston
Respublikasi hududida) avtomobil yo‘lining 135-140 km bo‘lagini diagnostika
qilish va yo‘l ishlarini rejalashtirish.**

Bajardi: 411-15 gurux talabasi

O‘rolova Xadicha

BMI rahbari:

Yunusov A. G’.

Mehnat va atrof-muhit muxofazasi
bo‘yicha maslahatchi:

Yunusov A. G’.

Tekshiruvchi:

Taqrizchi:

Toshkent 2019

MUNDARIJA

T/r	BAJARILGAN BOBLAR NOMLARI	SAHIFA
1.	Kirish	
2	Yo‘l joylashgan hududning tabiiy –iqlim sharoiti	
3	Ib toifali avtomobil yo‘lining asosiy texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari (ShNQ 2.05.02-07 ga asosan)	
4.	Avtomobil yo‘lining transport ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini diagnostika qilish va olingan ma’lumotlarni tahlil qilish	
5.	Avtomobil yo‘lining transport ekspluatatsion ko‘rsatkichlari holatini tashxis qilish va baholash natijalari asosida TEKni oshirish bo‘yicha yo‘l-ta’mirlash ishlarini rejalashtirish	
6.	Talab qilinadigan yo‘l qurilish materiallari sarfini aniqlash	
7.	Avtomobil yo‘lining transport ekspluatatsion sifatlarini oshirish texnologik jarayonlarini hisobi va texnologik jarayonlarda mashina-mexanizmlarga bo‘lgan talabni aniqlash	
8.	Texnologik jarayonlar xaritasini tuzish va chiziqli kalendar grafigini qurish	
9.	Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi	
10.	Xulosa	
11.	Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	

KIRISH

Respublikamiz iqtisodiyotining rivojlanishi va taraqqiy etishi avvalo avtomobil yo'llarining holatiga bog'liqdir. Shu boisdan istiqbol yillarida mamlakatimizda avtomobil yo'llari tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha bir qator keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirildi. Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov davlatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridan jahon bozoriga chiqishning O'zbekiston uchun eng qulay va qisqa yo'llarini loyihalash, ularni qurish haqida qayg'ura boshlagan edi. Ushbu masalani xal qilishda Respublikamiz raxbariyati tarixan mavjud bo'lgan Karvon yo'llarini rivojlantirishga qaror qildi. Buning isboti sifatida insoniyat taraqqiyotining eng ulkan yutuqlaridan biri hisoblangan Buyuk Ipak yo'lini ko'rishimiz mumkin.

Avtomobil yo'llari davlatimiz rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa so'ngi kunlarda avtomobil yo'llariga bo'lgan talab va etibor kundan kunga ortib bormoqda. Bunga men birgina misol tariqasida Prezidentimizning 2017-yil "Yo'l-xo'jaligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbiri" to'g'risidagi PQ-4947-sonli qarorini keltirishim mumkin.

O'zbekiston Respublikasi xalq xo'jaligi tizimida avtomobil transporti salmoqli o'rinlardan birini egallaydi. Avtomobil yo'llarida o'z vaqtida ekspluatatsiya ishlarini bajarish yil davomida transport vositalarining xavfsiz, qulay belgilangan tezlik va yuklangan holda harakatlanishini taminlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2018 yillarda mintaqaviy avtomobil yo'llarini rivojlantirish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori qabul qilindi.

Unda quyidagi vazifalar ko'zda tutilgan:

-2017-2018 yillarda 5454 kilometr, jumladan, 2017-yilda - 2700 kilometr, 2018-yilda-2754 kilometr xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llari, shaxarlar, shaxar posyolkalari, qishloq va ovullarning ko'chalarini tapital va joriy tamirlash, tamirlashga ixtisoslashtirilgan tashkilotlarni 330 ta yo'l texnikasi bilan taminlash, bu borada olib boriladigan ishlarning hammasi natijalari bo'yicha elektron malumotlar bazasini yaratish va boshqalar.

Shu bilan birga, Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha -295 km, Andijon viloyati bo'yicha - 324 km, Buxoro viloyati bo'yicha - 439 km, Jizzax viloyati bo'yicha-222 km, Qashqadaryo viloyati bo'yicha-679 km, Navoiy viloyati bo'yicha - 216 km, Namangan viloyati bo'yicha - 309 km, Samarqand viloyati bo'yicha - 479 km, Surxandaryo viloyati bo'yicha - 535 km, Sirdaryo viloyati bo'yicha - 267 km, Toshkent viloyati bo'yicha - 516 km, Farg'ona viloyati bo'yicha - 520 km, Xoraxm viloyati bo'yicha - 321 km va Toshkent shaxri bo'yicha - 332 km yo'llar va ko'chalarni tamirlash nazarda tutilgan.

Ayni paytga kelib Respublikamiz bo'yicha barcha yo'l tarmog'ining umumiy uzunligi 184 ming km dan ortiq, shundan Avtomobil yo'llari qo'mitasiga qarashli umumfoydalanuvdagi avtomobil yo'llari 42695 km ni tashkil etib, ulardan 4000 km ga yaqin xalqaro ahamiyatga molik avtomobil yo'llaridir.

Respublika umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari tarmog'ining bugungi kundagi mavjud titul holati quyidagi (1-jadval)da batafsil keltirilgan.

Respublika umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo'llarining titul holati

Jadval - 1

Hamma yo'llar		Yo'llar ahamiyati bo'yicha, km			Yo'llar qoplamasi bo'yicha, km				
Shundan toifasi bo'yicha, km		Hal-qaro	Davlat	Mahal-liy	s/b	a/b	Qora	Sha-g'al	Tup-roq
I	2664	1649	898	117	314	2241	109		
II	5969	1723	3648	598	24	5476	469		
III	7584	533	4132	2919	28	5113	2443		
IV	18993	67	4819	14107		7927	10988	78	
V	7485	19	585	6881		1221	4210	1349	705
Jami	42695	3981	14105	24609	366	21978	18219	1427	705

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan so'nggi yillarda bir necha qaror va farmonlar ishlab chiqilmoqda. Bunga misol qilib 2018 yil 27 noyabr PQ – 4035 sonli “Avtomobil yo'llarini qurish va ulardan foydalanish sohasida ishlarni tashkil etishning ilg'or xorijiy uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida” gi qarorini keltirish mumkin. Shuningdek 2019 yil yanvar oyidagi farmon bilan “Transport Vazirligi” tashkil etildi va “Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi” ushbu vazirlik tasarrufiga o'tkazildi.

Yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, Respublikamizda mavjud avtomobil yo'llarining xolatini o'rganish xam bu ishlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki mavjud yo'llarning holatini o'rganish va olingan ma'lumotlarni tahlil qilib kerakli muhandislik yechimlarni qo'llash orqali avtomobil yo'llarida xavfsiz va qulay harakatni ta'minlashda va albatta ularning xizmat muddatini oshirishda muhim hisoblanadi. Yo'llar va yo'l inshootlarining holatini tashxis qilish va

baholash yo‘l tarmog‘ining rivojlanishi va takomillashuvini, transport-ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini oshirishni, avtomobil yo‘llari tarmog‘ining har bir avtomobil yo‘li faoliyatining ishonchlilikini boshqarish tizimida asosiy bo‘g‘in bo‘lib, yo‘l tarmog‘ining rivojlanishi va takomillashuviga yo‘naltiriladigan mablag‘lar va moddiy resurslardan samarali ekspluatatsiyasi uchun zamin yaratadi.

Avtomobil yo‘llari - muxandislik inshootlari kompleksi bo‘lib, hisobiy yuk va belgilangan tezlikda avtomobillar harakati uzluksizligini, xavfsizligini va qulayligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Yo‘lning muhandislik inshootlari kompleksiga yo‘l poyi, yo‘l to‘shamasi, ko‘priklar, quvurlar va boshqa sun‘iy inshootlar, yo‘l jixozlari va himoya qurilmalari, avtoservis, yo‘l va avtotransport bino va inshootlari kiradi. Yo‘l va uning inshootlari elementlari holatini va o‘lchamlarini yo‘lning texnik va foydalanuv holatlari ifodalaydi.

Yo‘lning texnik holati – yo‘l va uning inshootlari doimiy (ekspluatatsiya jarayonida o‘zgarmaydigan yoki faqat rekonstruksiya va ta‘mirlashdan keyin o‘zgaradigan) ko‘rsatkichlarining (yo‘l poyi va qatnov qismi loyihaviy kengligi, to‘g‘ri va egri uzunligi, tik kutarilish va tushish joylari nishabligi va uzunligi, ko‘tarma balandligi va o‘yma cho‘qurligi, ko‘prik va yo‘l o‘tkazgichlar gabariti va yuk ko‘tarishi, jixozlanish elementlari) me‘yoriy talablarga muvofiq kelish darajasi hisoblanadi.

Yo‘lning ekspluatatsion holati–yo‘lning o‘zgaruvchan ko‘rsatkichlarini va tavsiflarini (yo‘l to‘shamasi mustaxkamligi, yo‘l ustki yuzasi holati, qatnov qismi va yo‘l cheti haqiqiy foydalanuv kengligi, qoplama ravonligi va tishlashish sifati, yo‘l belgi chizig‘i, muxandislik jixozlari holati) transport vositalari va meteorologik sharoit ta‘siridan, hamda saqlash darajasiga bog‘liq ravishda me‘yoriy talablarga muvofiq kelish darajasi hisoblanadi.

Yo‘l va uning inshootlarini texnik va ekspluatatsion holatini zarur bo‘lgan darajasini ta‘minlash uchun yo‘llarni ta‘mirlash va saqlash xizmati tashkil qilinadi. Yo‘llarni ta‘mirlash va saqlash xizmatining asosiy maqsadi - harakat jadalligi va yuklarni o‘sib borishiga muvofiq ravishda yo‘lning texnik va ekspluatatsion holatini oshirish hamda ta‘minlab turish, shu bilan birga avtomobillar ish samaradorligini va unumdorligini oshirish, yuk tashish tan narxini pasaytirishdan iborat.

YO‘L JOYLASHGAN HUDUDNING TABIIY –IQLIM SHAROITI

1b toifali M34 “Toshkent-Tushanbe” (Toshkent-Yangiyo‘l-Chinoz-Sirdaryo-Xovos-Dushanbe, O‘zbekiston Respublikasi hududida) avtomobil yo‘li Sirdaryo viloyatida joylashgan bo‘lib, quyida ushbu viloyat tabiiy-iqlim sharoiti bilan tanishib chiqamiz.

Sirdaryo viloyati– O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat. 1963 yil 16 fevralda tashkil etilgan. Shimoldan Qozog‘iston Respublikasi, sharkdan Toshkent viloyati, janubdan Tojikiston Respublikasi va g‘arbdan Jizzax viloyati bilan chegaradosh .Maydoni 5,3 ming km². Axolisi 667748 kishi (2003). Tarkibida 9 tuman (Boyovut, Guliston, Mehnatobod, Mirzaobod, Oqoltin, Sayxunobod, Sirdaryo, Xovos, Sharof Rashidov) 5 shahar (Guliston, Baxt, Sirdaryo, Shirin, Yangier), 6 shaharcha (Boyovut, Dehqonobod, Do‘stlik, Paxtaobod, Sayxun, Xovos) va 75 qishloq fuqarolari yig‘ini bor (2004). Markazi — Guliston shahri.

Hududning havo iqlim sharoiti. Ob-havosi keskin o‘zgaruvchan va quruq. Yillik o‘rtacha temperaturasi 14°. Yanvarning o‘rtacha temperaturasi shimolda — 6°, janubda —2°. Qishda havo tez soviydi va temperatura —30° gacha (Gulistonda —35°) pasayadi. Ba’zan, qish o‘rtalarida havo birdaniga isib, keyin sovib ketadi. Kech ko‘klamda va erta kuzda ham kora sovuq tushib o‘simlikning o‘sinh davrini qisqartiradi. Yozi quruq va issiq. Iyulning o‘rtacha temperaturasi 27—29°. Yozda temperatura 32—45° gacha ko‘tariladi. Ko‘pincha issiq shamol (garmsel) tuproqni quritadi va o‘simliklar rivojlanishiga yomon ta’sir qiladi. Vegetatsiya 218 kun. Yillik yogin 180—220 mm, asosan, qishda yog‘adi. Yozda kuchli bug‘lanish sababli yer osti suvlari yuza maydonlarning (Sharof Rashidov, Oqoltin, Guliston tumanlari) tuprog‘ini sho‘r bosadi. Noyabrdan martgacha tez-tez esib turadigan«Bekobod shamoli» tezligi 20—25 m/sek. (Boyovut tumanida 40 m/sek.)ga yeta-di.

Havo xaroratining yil davomida oylar bo‘yicha o‘zgarishi o‘rtacha qiymatlari jadvalda keltirilgan.

Oylar	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
T ° S,	- 1.5	1.0	7.7	15.2	21.0	25.4	26.8	24.3	18.8	12.3	5.3	0.2

Havo nisbiy namligi darajasi yil davomida qo‘yidagi jadval asosida o‘zgaradi:

Oylar	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
-------	---	----	-----	----	---	----	-----	------	----	---	----	-----

W	4.7	5.4	7.5	10.9	13.1	14.8	17.0	15.9	11.5	8.6	6.6	5.4
---	-----	-----	-----	------	------	------	------	------	------	-----	-----	-----

Hududning rel'efi. Rel'efi, asosan, to'liqinsimon tekislik bo'lib, janubdan shimoli g'arbga pasayib boradi. Mirzacho'l dashtining bir qismi viloyat hududigakiradi. Balandlik shimolda 230 m, markaziyqismida 400—450 m, janubda va janubi g'arbda 600—650 m. Sharqida keng Sirdaryo vodiysi joylashgan. Mezozoy va kaynozoy davrida, asosan, cho'kindi jinslarnin gqalin qatlami bilan qoplangan. Sho'ro'zak, Mirzarabot, Sardoba kabi botiqlar mavjud. Tekislik qismi daryolar oqizib keltirgan yotqiziklardan hosil bo'lgan, ba'zi joylarini ko'l, botqoq va sho'rxokyerlar egallagan. Sirdaryo viloyatida yangi kanallar, zovurlar qazilib, cho'l o'zlashtirildiva ekin maydonlarga aylantirildi. Tekislik qismida irrigatsiya inshootlari qurilib, paxtazor, bog' va tokzorlar barpo qilindi. Adirlar lalmikor yerlar va yaylovlardan iborat.

Tuproklari, asosan, och tusli kuchsiz joylashgan bo'z tuproq bo'lib, kam va o'rtacha sho'rlangan, mexanik tartibiga ko'ra, qumoq va soztuproklardir. Tekisliklarda sho'rxok va sho'rxoksimon tuproq uchraydi. Yer ostisuvining chuqurligi 5—6 m. Sho'ro'zak massivida, hali o'zlashtirilmagan pastqam joylarda sho'rxoklar keng tarqalgan. Sug'oriladigan yerlarning 32% sho'rlangan, 25% kuchsiz sho'rlangan, 16% sho'rxoklardan iborat.

AVTOMOBIL YO‘LINING ASOSIY TEXNIK-IQTISODIY KO‘RSATKICHLARI

№	Ko‘rsatkichlar	Qiymati	O‘lchov birligi
1	Yo‘lning toifasi	Ib	
2	Harakat tasmaining soni	4	Ta
3	Harakat tasmaining kengligi	3,75	M
4	Yo‘l yoqasining kengligi	3,75	M
5	Yo‘l yoqasining chetki tasma kengligi	0,75	M
6	Yo‘l yoqasining mustahkamlangan qismi kengligi	2,5	M
7	Yo‘l o‘qi bo‘ylab to‘siqlar o‘rnatilmaganda markaziy ajratuvchi tasmaning eng kam kengligi	5	M
8	Yo‘l o‘qi bo‘ylab to‘siqlar o‘rnatilganda markaziy ajratuvchi tasmaning eng kam kengligi	2+ to‘siq kengligi	M
8	Ajratuvchi tasma chetidagi xavfsizlik tasmaining kengligi	1	M
9	Yo‘l poyining kengligi	27,5 va undan ortiq	M
10	Hisobiy tezlik	120	km/soat
11	Rejadagi egrilik radiuslari	3000 - 1000	M
12	Eng kata bo‘ylama nishablik	40	‰
13	Rejadagi eng kichik egrilik radiusi: Asosiy Tog‘li joylarda	800 600	M
14	Buylama kesimda eng kichik egrilik radiusi: Qabariq Botiq	15000 3000	M
15	Hisobiy harakat jadalligi	14000 va undan yuqori	dona/sut

AVTOMOBIL YO‘LINING TRANSPORT EKSPLUATATSION KO‘RSATKICHLARINI DIAGNOSTIKA QILISH VA OLINGAN MA’LUMOTLARNI TAHLIL QILISH

4.1. Avtomobil yo‘llarini diagnostika qilish ishlari tarkibi

Avtomobil yo‘llarini diagnostika qilish IQN 05-2011 me’yoriy xujjati talablari asosida olib boriladi. Mazkur idoraviy me’yorlar O‘zbekiston Respublikasi avtomobil yo‘llarining holatini tashxis qilish va baholash qoidalariga taalluqli bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi avtomobil yo‘llarining texnik darajasi, ekspluatatsion holati, muhandislik jihozlanishi va obodonlashuvini baholash tartibini belgilab beradi. Baholash uchun zarur bo‘lgan yo‘llarning ko‘rsatkichlari va xususiyatlari haqida axborotni yig‘ish tartibi belgilangan.

Qoidalar yo‘llarning texnik darajasi, ekspluatatsion holatini majmuiy baholash uslubiyotini o‘z ichiga oladi, shuningdek, mavsumiy baholash uchun zarur bo‘lgan yo‘llar holati haqidagi ma’lumotlarni yig‘ish va ularga ishlov berish tartibini, ketma-ketligini va takrorlanishini, yo‘llarni tekshirish uslubiyotini, asboblarni, laboratoriyalar va o‘lchov asboblarning ro‘yxatini belgilaydi.

Avtomobil yo‘llarning holatini tashxis qilish va baholash ularning transport-ekspluatatsion holatini va ta’minoti darajasini aniqlash, ularning transport-ekspluatatsion ko‘rsatkichlarining yo‘llar iste’mol xususiyatlariga muvofiqligi darajasini aniqlash hamda ushbu nomuvofiqlik sabablarini aniqlash maqsadida bajariladi. Yo‘llarning holatini tashxis qilish va baholash natijalariga ko‘ra, iste’mol xususiyatlariga me’yoriy talablarni ta’minlab bermaydigan yo‘l uchastkalari aniqlanib, yo‘llarning transport-ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini talab etiladigan darajagacha oshirish maqsadida ta’mirlash turlari hamda yo‘llarning ta’minoti, ularni ta’mirlash yoki rekonstruksiya qilish yuzasidan asosiy ishlar va choralarning tarkibi belgilanadi. Avtomobil yo‘llarining holatini tashxis qilish va baholash materiallari yo‘llar va yo‘l inshootlarini ta’mirlash va rekonstruksiya qilish bo‘yicha loyiha-tizim hujjatlarini ishlab chiqish uchun asosiy negiz hisoblanadi.

Barcha tashxis qilish hujjatlari har bir avtomobil yo‘li (uchastkasi) bo‘yicha alohida, belgilangan shakllar bo‘yicha va ushbu qoidalarining talablariga muvofiq tuzilishi shart. Hisobning texnik hujjatlariga har yili 1 yanvardagi holatiga ko‘ra o‘zgartirishlar kiritiladi. Tashxis qilish hujjatlari birlamchi yo‘l tashkilotlarida elektron va qog‘oz shaklida saqlanishi lozim, yuqori turuvchi boshqarish organlari esa imkon qadar ushbu tashkilotlarning elektron axborot bazalariga kirish

imkoniyatiga ega bo'lishi yoki hisobotning belgilangan shakllariga muvofiq ularni talab etishi kerak.

Avtomobil yo'llarining sifati va holatini baholash o'tkaziladi:

- yo'l qurilishdan keyin foydalanishga topshirilganda, boshlang'ich amaldagi transport-foydalanish holatini aniqlash va me'yoriy talablarga taqqoslash maqsadida;

- foydalanish jarayonida vaqti-vaqti bilan yo'l holatining o'zgarishi dinamikasini nazorat qilish, bu o'zgarishni prognozlash hamda ta'mirlash va ta'minot ishlarini rejalashtirish uchun;

- choralar rejasi yoki rekonstruksiya, kapital ta'mirlash yoki ta'mirlash loyihasini ishlab chiqishda kutiladigan transport-foydalanish holatini aniqlash, uning me'yoriy talablari va ko'zda tutilgan ishlarning samaradorligini baholash uchun;

- yo'llar holatini tashxis qilish va baholash natijalariga ishlari bajarilganidan keyin ushbu ishlar bajarilgan uchastkalarda, yo'llarning transport-foydalanish holatining haqiqiy o'zgarishini aniqlash maqsadida.

Yo'llar holatini tashxis qilish va baholash ishlarini tegishli ko'chma laboratoriyalar, asboblari va uskunalari bilan jihozlangan ixtisoslashgan mustaqil tashkilotlar bajarishi lozim.

Ishlarni bajarish hajmiga ko'ra yo'llar holatini tashxis qilish va baholash birlamchi va ikkilamchi turiga bo'linadi. Birlamchi tashxisda, odatda, yo'l holati, shuningdek, transport oqimining belgilangan ko'rsatkichlarining butun majmui o'lchanadi va baholanadi, takroriy tashxisda esa faqat o'zgaruvchan xususiyatlar qaraladi, ularga yo'l to'shasining mustahkamligi, bo'ylama va ko'ndalang tekisligi (yo'l izining chuqurligi), qoplamning g'adir-budurligi va ilashuvchan xususiyatlari, transport oqimining xususiyatlari va hokazo kiradi. Bundan tashqari, takroriy tashxisda ta'mirlash yoki rekonstruksiya jarayonida o'zgargan doimiy ko'rsatkichlar va xususiyatlar ham o'lchanadi va baholanadi. Zaruriy hollarda doimiy va o'zgaruvchan ko'rsatkichlar va xususiyatlarning ayrim guruhlar yoki birikmalari o'lchanishi va baholanishi mumkin.

Yo'llar va yo'l inshootlari holatini baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlar, mezonlar va xususiyatlar bo'yicha asosiy boshlang'ich axborotning katta hajmini yig'ish va tahlil qilish lozim bo'ladi.

Yo'l to'g'risida umumiy ma'lumotlar:

- yo'lning raqami va tituli belgilanishi, uning joylashuvi;
- yo'lning toifasi, uzunligi;
- yo'l-iqlim zonasi;
- boshqarish organi va xizmat ko'rsatuvchi tashkilot;
- oxirgi 12 oy ichida yo'l ta'minotining darajasini baholash.

Geometrik ko'rsatkichlari va xususiyatlari:

- yo'lining harakat qismi, yo'lining asosiy mustahkamlangan yuzasi va mustahkamlangan yo'llarining eni;
- yo'l chetlari, jumladan, mustahkamlangan chetlarining eni; yo'l chetlarini mustahkamlash turi va holati;
- bo'ylama qiyaliklari;
- yo'l harakat qismining va yo'l chetlarining ko'ndalang qiyaliklari;
- rejadagi egri chiziqlar radiuslari va viraj qiyaligi;
- yer to'shamasining balandligi, olingan chuqurligi va yon bag'irlarining qiyaliklari; yer to'shamasining holati;
- yo'l yuzasining rejadagi va ko'ndalang kesimidagi ko'rinuvchanlik masofasi.

Yo'l qoplamasi va qoplamining xususiyatlari:

- yo'l qoplamasining konstruksiyasi va qoplamining turi;
- yo'l qoplamasi va qoplamining mustahkamligi va holati (nuqsonlarning mavjudligi, turi, joylashuvi va xususiyatlari);
- qoplamning bo'ylama tekisligi;
- qoplamning ko'ndalang tekisligi (yo'l izining tekisligi);
- g'adir-budurligi va g'ildirakning qoplamga ilashuvchanlik koeffitsienti.

Sun'iy inshootlar:

- ko'priklar, yo'l o'tkazgichlar, estakadalar, tonnellarining joylashuvi, turi, uzunligi va o'lchami;
- ko'priklar, yo'l o'tkazgichlar va estakadalarning yuk ko'tarish qobiliyati;
- bordyurlar mavjudligi va balandligi;
- ko'priklar to'shamasining turi va holati;
- quvurlarning mavjudligi, materiali, turi, o'lchami va holati.

Yo'llarni obodonlashtirish va jihozlash:

- kilometr belgilari va signal ustunlari;
- yo'l belgilari, ularning joylashuvi, holati hamda joylashtirish me'yorlari va qoidalariga muvofiqligi;
- yo'lda qo'yilgan belgilar, uning holati hamda qo'yilishining me'yorlari va qoidalariga muvofiqligi;
- yo'l bo'yi to'siqlari, ularning konstruksiyasi, joylashuvi, uzunligi, holati hamda o'rnatish me'yorlari va qoidalariga muvofiqligi;
- yoritish;
- avtomobil va temir yo'llarga yonma-yon kelishi, ularni kesib o'tishi, ularning turi, joylashuvi, loyihalashtirish me'yorlariga muvofiqligi;
- avtobus bekatlari va pavilonlar, dam olish maydonchalari, avtomobillarning to'xtatish va to'xtash joylari uchun maydonchalar, ularning asosiy

ko'rsatkichlari va me'yoriy talablarga muvofiqligi;

- yo'lning harakat qismining qo'shimcha yo'llari va piyoda o'tishi-tez harakat yo'llari, ularning asosiy ko'rsatkichlari.

Yo'l bo'ylab harakatning tavsifi:

- o'ziga xos yo'l kesimlarida harakatning jadalligi va uning oxirgi 3-5 yil davomida o'zgarishining dinamikasi;

- transport oqimining tarkibi va uning o'zgarishining dinamikasi, bunda yengil va turli darajali yuk ko'taruvchi yuk avtomobillari, avtobuslar, boshqa transport vositalarining ulushi ajratib ko'rsatiladi;

- oxirgi 3-5 yil davomida yo'l-transport hodisalari yuzasidan ma'lumotlar, kilometrajga bog'liq holda hamda yo'l sharoitlari bo'yicha hodisalar soni ajratib ko'rsatiladi.

Turli boshqaruv vazifalari uchun asosiy boshlang'ich axborot va umumiy avtomatlashtirilgan yo'l ma'lumotlari bazasi tizimini (quyida-yo'l ma'lumot bazasi) shakllantirishdan tashqari, tashxis qilishda qo'shimcha axborot yig'ish mumkin, xususan:

Umumiy axborot:

- yo'l va yo'l inshootlarining balans qiymati va eskirishi;
- foydalanish davrida yo'lni ta'mirlashning joyi, muddatlari, hajmlari, turlari va qiymati;

- chetga chiqarish yo'lining kengligi va egallagan yer maydoni;

- suvni chetga chiqarish tizimi va uning holati;

- chetga chiqarish yo'lida kommunikatsiyalar;

- chaqiruv va texnologik aloqa;

- boshqa axborot.

Himoya inshootlari:

- qordan himoyalash, shamoldan himoyalash, shovqindan himoyalash va dekorativ o'rmon ekinlari va o'rmon yo'llari;

- qordan himoyalash devorlari, shovqindan himoyalash va shamoldan himoyalash moslamalari, yo'llarni qor ko'chkilaridan, tuproq ag'darmalari, o'pirilishidan himoya qilish moslamalari va hokazo.

Harakatga xizmat ko'rsatish va yo'l xizmati ob'ektlari:

- AES, STO, kempinglar, mehmonxonalar, ovqatlanish shoxobchalari, tibbiy yordam shoxobchalari, YPX shoxobchalari, avtovokzallar, ushbu ob'ektlarga kirish-chiqishlar;

- yo'l xizmatining binolari va inshootlari, sirpanchiq muzga qarshi materiallar bazalari, qum bazalari, yo'l mashinalarining joylashuvi va hokazo.

Aholi punktlari va yondosh hududning xususiyatlari:

- turar joy uylari;

- yo‘l o‘tgan aholi punktlarining mavjudligi, aholi soniga qarab bo‘lingan holda (50 mingdan ko‘p yoki 50 mingdan kam);
- aholi punktlarida alohida harakat qoidalarining mavjudligi;
- yo‘ldan chetda (20 m gacha) joylashgan aholi punktlarining mavjudligi (aholi soni 50 mingdan ko‘p), yo‘ldan to ulargacha bo‘lgan masofa ko‘rsatiladi.

Yo‘lning kesishgan joylari va qo‘shilgan joylari:

- yo‘llarning bir sathda “X” simon kesishgan joyi;
- yo‘llarning bir sathda halqa turidagi kesishgan joyi;
- yo‘llarning bir sathda “T” – simon qo‘shilgan joyi;
- yo‘llarning tartibga solinadigan yoki solinmaydigan harakatli kesishgan yoki qo‘shilgan joyi;
- kesib o‘tiladigan yo‘l toifasi;
- kesib o‘tiladigan yo‘l qatnov qismining eni va qoplamining turi;
- yo‘lning kesishgan burchagi;
- yo‘naltiruvchi orolchalarning mavjudligi va turi;
- tramvay liniyasi bilan kesishgan joyi;
- shaharlarda va aholi punktlarida chorrahalar;
- ob‘ekt (aholi punkti, DRSU, dala va hokazo) yo‘nalishi va ungacha masofa;

- AES, STO, ovqatlanish joylari, dam olish maydonchalari, mehmonxonalar va hokazolarga tushish va kirish yo‘llari;

- temir yo‘lni kesib o‘tish joyida yo‘llarning soni;
- temir yo‘lni kesib o‘tish joyida shlagbaum mavjudligi.

Qatnov qismining eni:

- asosiy harakat tasmalarining eni;
- ko‘tarilish uchun qo‘shimcha tasmaning eni;
- kichik radiusli egri chiziqli yo‘lda kengayish;
- yo‘llarning qo‘shilgan va kesishgan joylari zonasida, avtobus bekatlari zonasida (va hokazo) tezlikni oshirib o‘tish tasmasining (tezlashish va sekinlashish tasmasi) eni, tasmalar boshlanishi va oxirining joyi ko‘rsatiladi.

Harakat xavfsizligiga ta’sir etuvchi yo‘l inshootlari va jihozlanishi elementlari:

- yer osti va yer usti piyodalarning o‘tish joylari;
- yoritish turi, boshlanishi va oxirining joyi ko‘rsatiladi;
- qatnov qismida yo‘l o‘tkazmalarining tayanchlari joylashuvi;
- yo‘l chetida joylashgan yo‘l o‘tkazmalari yoki tonnellarining tayanch devorlari;
- harakat uchun to‘siqlar joylashuvi ko‘rsatiladi;
- svetoforli tartibga solish, svetoforlar joylashuvi ko‘rsatiladi;

- harakat jadalligini avtomatlashtirilgan hisobga olish punktlari;
- yo‘l meteorologik stansiyalari.

Quyidagilarning joylashuvi:

- telefon;
- dam olish maydonchalaridan tashqarida ichimlik suvi manbalari va avtomobillarni yuvish joylari;
- bojxona (nazorat punkti);
- yuk nazorati punkti;
- DYHXX maskani;
- avtomobillar burilishi uchun yo‘lning ochiq joylari.

Qo‘shimcha yig‘iladigan axborot hajmi yo‘llar holatini tashxis qilish va baholash ishlarini bajarish bo‘yicha shartnoma (kontrakt) bilan belgilanadi.

Avtomobil yo‘llarining holatini tashxis qilish to‘rtta asosiy bosqichni o‘z ichiga oladi, ular, odatda, ketma-ket bajariladi:

- tayyorlash ishlari;
- dala tekshiruvlari;
- olingan axborotga kameral ishlov berish;
- yo‘l axboroti bazasini shakllantirish va yangilash.

Ishlarni tezlashtirish uchun ayrim bosqichlarni qo‘shib olib borishga yo‘l qo‘yiladi (tayyorlash ishlari va dala tekshiruvlari, dala tekshiruvlari va olingan axborotga ishlov berish va hokazo).

Tayyorlash ishlari ko‘chma laboratoriyalar, asbob va jihoz-uskunalarini tayyorlash, brigadalarni butlash, tegishli shakllar, jurnal va jadvallarni tayyorlash, tekshirilayotgan yo‘llarning texnik pasportlaridan kerakli axborotni yig‘ish, loyiha va ijro axborotini, shuningdek, avvalgi tekshiruv materiallari va yo‘l axboroti bazasida bo‘lgan axborotni tahlil qilish.

Tekshiriladigan yo‘llar avvaldan qatnov qismining eni va harakat tasmalarining soni, yer to‘shamasi va yo‘l poyining konstruksiyasi, avtomobillar harakatining jadalligi va tarkibi turlicha bo‘lgan o‘ziga xos uchastkalarga ajratiladi. Tegishli yo‘l uchastkalarining chegaralari piketaj joylashuvining axboroti qayd etiladi.

Yo‘lning transport–ekspluatatsion ko‘rsatkichlari transport vositalarining harakat **tezligiga** va **xavfsizligiga** ta’sir etuvchi eng muhim omillar hisoblanadi.

Shuning uchun yo‘lning kuzatuv olib borilayotgan bo‘laklarida avtomobillarning harakat tezligini ham aniqlash kerak.

Harakat oqimining tezligi - yo‘l bo‘laklari bo‘yicha har xil transport vositalarining tezligini alohida va umuman o‘zgarishini ko‘rsatuvchi ko‘rsatkich, o‘lchov birligi m/s yoki km/soat.

Maqsad va vazifalariga qarab tezliklar hisobiy, oniy, aloqa, konstruktiv, texnik tezliklarga bo'linadi.

Hisobiy tezlik - yakka avtomobillarning ob-havoning muqim sharoitida, avtomobil shinasining me'yoriy tishlashish holatida, yo'lining eng noqulay bo'laklarida mumkin bo'lgan eng katta tezlikdagi harakatiga aytiladi. Bu tezlik bo'yicha yo'lining rejadagi, bo'ylanma va ko'ndalang kesimdagi barcha geometrik elementlari loyihalanadi. Hisobiy tezlik avtomobil yo'llarining darajasiga qarab ShNQ 2.05.02-07 asosan belgilanadi.

Real yo'l sharoitlarida yakka holda harakatlanayotgan avtomobillarning tezligi 120-150 km/soatdan 40-50 km/soatgacha o'zgarishi kuzatiladi.

Hisobiy tezlik ta'minlanganligining ekspluatatsion koeffitsienti – alohida yengil avtomobilning har bir uchastkada harakat xavfsizligi shartlariga ko'ra yoki avtomobilning yo'l bilan o'zaro ta'siri shartlariga ko'ra yo'l bilan ta'minlangan aslidagi maksimal tezligining ($V_{F.MAX}$), ushbu yo'l toifasi va joy reliefi uchun hisobiy tezlikka nisbati (V_{RASh}):

$$K_{PC.3} = \frac{V_{\Phi.MAX}}{V_{PACH}} \quad (4.1)$$

Hisobiy tezlik ta'minlanganligining koeffitsienti – ($V_{F.MAX}$) ning bazaviy hisobiy tezlikka nisbati (V_{PACH}^B):

$$K_{PC} = \frac{V_{\Phi.MAX}}{V_{PACH}^B} \quad (4.2)$$


Bazaviy hisobiy tezlik deb quyidagi tezlik qabul qilingan

$$V_{PACH}^B = 120 \text{ km/coam}.$$

$$\text{bunda } K_{PC} = \frac{V_{\Phi.MAX}}{120}$$

Amaliy hisob-kitoblarda hisobiy tezlik ta'minlanganligining koeffitsientidan ekspluatatsion tavsiya etiladi.

Ravonlik deb, qoplama yuzasini avtomobil dinamikasiga, dinamik yuklanganlikka va harakat qulayligiga ta'sir qiladigan darajada, loyihaviy yuzaga nisbatan og'ishi tushuniladi. Yo'l qoplamasi ravonligi avtomobil xarakatlanadigan yo'nalishda bir to'g'ri chiziq bo'yicha o'lchanadi (Rasm 1). Yo'lining ravonligi yo'l yuzasining tasnifi bo'lib, noravonlik yoki bo'ylama va ko'ndalang ravonliklarga ajratiladi. Bundan tashqari Rasm 1 da bo'ylama va ko'ndalang ravonliklar orasidagi farq ham ko'rsatilgan.



Rasm 1. Avtomobil yo‘lidagi bo‘ylama va ko‘ndalang ravonlik.

Ravonlikni aniqlash uchun turli modifikatsiyadagi zarba o‘lchagichlar (Rafometr, TED-2, TXK-2, PKRS-2 va boshqalar), uch metrli reyka ponasi, niveler bilan .

Yo‘l qoplamasining ravonlik ko‘rsatkichi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$K_{rov} = \frac{[S_{tp}]}{S_x} \geq 1$$

bu yerda, S_n - ravonlikning me‘yoriy ko‘rsatkichi;
 S_x -haqiqiy yo‘l bo‘lagida aniqlangan ravonlik ko‘rsatkichi.

Ravonlik (3 metrli reyka bo‘yicha) baholanadi:

$S = 80 \text{ sm/km}$	-a‘lo;
$S = 80-120 \text{ sm/km}$	-yaxshi;
$S = 120-300 \text{ sm/km}$	-qoniqarli;
$S = 300 \text{ sm/km}$ katta bo‘lsa	-qoniqarsiz.

Yo‘l qoplamasining mustahkamligi qoplamaning qanchalik egilishga qarshilik ko‘rsatishi bilan aniqlanib, u quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$K_{muc} = \frac{\lambda_x}{\lambda_{mp}} \geq 1$$

bu yerda, λ_x - yo‘l bo‘lagidagi qoplamaning haqiqiy

egilishi;

λ_{mp} - yo‘l qoplamasining ruxsat etilgan nisbiy

egilishi.

Nobikir turdagi yo‘l qoplamasining mustahkamligi statistik yoki dinamik uslubda mustahkamlik koeffitsientini aniqlash bilan birgalikda o‘lchanadi. Mustahkamlik koeffitsienti-konstruksiyaning haqiqiy elastiklik moduli ($Y_{e\text{haqiqiy}}$)ning, harakat sharoitlari talab etayotgan elastiklik moduli ($Y_{e\text{talab}}$)ga nisbati bilan hisoblanadi. Mustahkamlik koeffitsienti yilning bahor va kuz faslida yo‘l qoplamasining eng zaiflashgan paytida aniqlanadi. Bikir bo‘lgan yo‘l qoplamalarining mustahkamligi aniqlanmaydi va 1 ga teng deb qabul qilinadi. Nobikir yo‘l qoplamalarining mustahkamlik ko‘rsatkichlarini baholash me‘yorlari 2-jadvalda keltirilgan.

Mustahkamlikni aniqlashda yo‘l qoplamasini egilishni o‘lchaydigan turli modifikatsiyadagi asboblari (MADI-SNIL, KP-204 va boshqalar), dinamik yuklama beradigan turli qurilmalar (UDN, DINA va boshqalar).

Yo‘l to‘shamasining mustahkamligi:

1-toifa - $Y_e=230$ Mpa

2-toifa - $Y_e=220$ MPa

3-toifa - $Y_e=180$ Mpa

4-toifa - $Y_e=160$ MPa

5-toifa - $Y_e=60$ MPa qabul qilingan

Yo‘l to‘shamasining mustahkamlik koeffitsienti qiymatlari

4.1-jadval

O‘rtacha bahosi B_{SR}	Mustahkamlik koeffitsienti K_{PR}
5,0	1,0
4,5	0,95
4,0	0,90
3,5	0,85

3,0	0,80
2,5	0,75
2,0	0,70
1,5	0,65
1,0	0,60

Yo'l qoplamining tishlashishning xususiyatlarini o'lchashda PKRS-2U moslamasida protektor naqshi bo'lmagan yoki kamida 1 mm li naqshi bo'lgan shina ishlatilishi lozim. Silliqlik protektorli maxsus shina bo'lmaganda egatchalarining qoldiq chuqurligi kamida 1 mm bo'lgan shu o'lchamdagi odatdagi eskirgan shinadan foydalanish ruxsat etiladi. Yo'l tekisligini o'lchash uchun zarbani o'lchagich yoki bamp integrator bilan jihozlangan ko'chma laboratoriyalardan foydalanishga yo'l qo'yiladi. Bunda taqqoslash sinovlarini yo'l qoplamining tekisligi va tishlashish xususiyatlariga ko'ra farqlanuvchi kamida 5 ta uchastkalarda o'tkazilishi lozim.

Yo'l qoplamasining tishlashish koefitsienti quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$K_{muu} = \frac{\varphi_x}{[\varphi_{mp}]} \geq 1$$

bu yerda, φ_{mp} -me'yoriy tishlashish koefitsienti.

φ_x -haqiqiy qoplamadagi tishlashish koefitsienti.

Avtomobil yo'lining ekspluatatsiya davrida talab qilingan ilashish koefitsienti φ_{tr}

4.3-jadval

Harakat sharoiti	Avtomobillarning harakat tezligi km/h			
	40	60	80	100
Yengil	0,45	0,35	0,26	0,23
Qiyin	0,50	0,40	0,28	0,25

Xavfli	0,55	0,45	0,30	0,28
--------	------	------	------	------

4.3 Avtomobil yo'lining transport ekspluatatsion ko'rsatkichlarini diagnostika qilish va olingan ma'lumotlarni tahlil qilish

Yo'l transport-ekspluatatsion holatini baholash yo'ning iste'mol xususiyatlari deb qabul qilingan asosiy transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlarining me'yoriy talablarga muvofiqligi darajasiga ko'ra amashga oshiriladi.

Ularga yo'l bilan ta'minlangan harakat tezligi, uzluksizligi, qulayligi va xavfsizligi, harakatni o'tkazish qobiliyati, tegishli yo'l toifalari uchun belgilangan o'qli yuki va umumiy vazni bo'lgan avtomobillarni va avtopoezdlarni o'tkazish qobiliyati kiradi.

Barcha asosiy transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlarni eng to'liq aks ettiruvchi integral ko'rsatkich deb hisobiy tezlik ta'minlanganligi koeffitsienti orqali ifodalangan harakat tezligi qabul qilingan.

Qaralayotgan usul yo'ning qurilishi, rekonstruksiya yoki ta'mirlash loyihasi sifatini, yo'lni qurilish, rekonstruksiya yoki ta'mirlashdan keyin foydalanishga topshirish paytida uning sifatini baholash, shuningdek, foydalanilayotgan yo'ning sifatini va transport-ekspluatatsion holatini baholash uchun qo'llanadi.

Yo'ning iste'mol xususiyatlarini baholash yo'ning ishlashiga va uning avtomobillar harakatlarining shartlari bo'yicha hisobiy kuz-bahor mavsumida nam yoki ho'l yuzasi bo'lganda, yo'ning barcha afzalliklari va kamchiliklari eng to'liq namoyon bo'lgandagi holatiga nisbatan bajariladi. Yilning issiq quruq paytida, qulay ob-havo sharoitida aslidagi transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlar kuz-bahor mavsumidan yuqoriroq bo'lishi mumkin. Shuning uchun yilning issiq quruq paytida bajarilgan tekshirish natijalari yo'ning hisobiy kuz-bahor mavsumi sharoitlariga keltiriladi.

Yo'llarning transport-ekspluatatsion holati majmuiy ko'rsatkichining me'yoriy qiymatlari (KP_N) ShNK 2.05.02-07, MShN 24-05 talablariga mos keladi. Kuz-bahor mavsumining noqulay ob-havo sharoitida yo'ning transport-ekspluatatsion holatining ko'rsatkichiga (KP_D) talablar pasayishiga yo'l qo'yiladi, lekin ko'pi bilan 25% gacha. Bu qiymatlar eng yuqori yo'l qo'yiladigan qiymat deb qabul qilinadi (KP_P). KP_D ning amaldagi qiymatlari 0,15 dan 1,25 gacha va undan ortiq darajagacha o'zgarishi mumkin.

4.4-Jadval

Yo'llarning transport-ekspluatatsion holati majmuiy ko'rsatkichining me'yoriy qiymatlari KP_N (surat) va eng yuqori yo'l qo'yiladigan qiymatlari KP_P (maxraj)

Yo'l toifasi	Asosiy hisobiy tezlik, km/h	Asosiy uzunlikda	Noqulay yo'l uchastkalarida	
			adirli	tog'li
I-a	150	1,25/0,94	1,0/0,75	0,67/0,50
I-b, II	120	1,0/0,75	0,83/0,62	0,5/0,38
III	100	0,83/0,62	0,67/0,50	0,42/0,33

IV	80	0,67/0,50	0,50/0,38	0,33/0,25
V	60	0,5/0,38	0,33/0,25	0,25/0,17

Yo'lning ko'rsatkichlari va xususiyatlari butun kuz-bahor mavsumi davomida transport-ekspluatatsion holatining majmuiy ko'rsatkichining me'yoriy qiymatdan past bo'lmagan qiymatini ($KP_D \geq KP_N$) ta'minlaydigan holati me'yoriy holat deb hisoblanadi. Yo'lning ko'rsatkichlari va xususiyatlari kuz-bahor mavsumi davomida transport-ekspluatatsion holatining majmuiy ko'rsatkichining me'yoriy qiymatdan pastroq, lekin eng yuqori yo'l qo'yiladigan qiymatidan past bo'lmagan qiymatini ($KP_N > KP_D > KP_P$) ta'minlaydigan holati yo'l qo'yiladigan holat, lekin yaxshilashni va ta'minot darajasini oshirishni talab etuvchi holat deb hisoblanadi.

Yo'lning ko'rsatkichlari va xususiyatlari kuz-bahor mavsumi davomida transport-ekspluatatsion holati majmuiy ko'rsatkichining eng yuqori yo'l qo'yiladigan qiymatidan pastroq qiymatini ($KP_D < KP_P$) ta'minlaydigan holati yo'l qo'yilmaydigan holat, darhol ta'mirlashni yoki rekonstruksiyanı talab etuvchi holat deb hisoblanadi.

Yo'lning sifati va holatini baholashning asosiy bosqichi unging texnik darajasi va ekspluatatsion holati ko'rsatkichini yoki transport-ekspluatatsion holatining majmuiy ko'rsatkichini (KP_D) aniqlash hisoblanadi, u yo'l ko'ndalang profilining, yo'l rejasi va bo'ylama profilining geometrik ko'rsatkichlarini, yo'l qoplami holati va yo'l yer to'shamasining mustahkamligini, bo'ylama va ko'ndalang tekisligini, yo'l qoplaminı tishlashish xususiyatini, yo'l chetlarining holatini, ko'priklar va yo'l o'tkazgichlarning o'lchamlari, transport oqimlarining jadalligi va tarkibini, shuningdek harakat xavfsizligini baholashni o'z ichiga oladi.

Yo'lning transport-ekspluatatsion holatini majmuiy baholash uslubiyoti asosida uning transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlarini belgilab beruvchi ko'rsatkichlarga va xususiyatlarga qo'yiladigan barcha me'yoriy talablarga qat'iy rioya qilish tamoyili yotadi.

Yo'lning har bir o'ziga xos qismining transport-ekspluatatsion holati hisobiy tezlik ta'minlanganligining yakuniy koeffitsienti K_{PCi}^{HTOR} bilan baholanadi, u yo'lning ushbu qismida transport-ekspluatatsion holatining majmuiy ko'rsatkichi deb qabul qilinadi:

$$KP_{Di} = K_{PCi}^{HTOR}$$

4.3.1. Olingan ma'lumotlarni yig'ish va rasmiylashtirish

Axborotni yig'ish ishlari yo'lining raqami va titulini aniqlash, bunda uning joylashuvini, yo'l boshqarish organi va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotini ko'rsatishdan boshlanadi

Yo'l bo'lagi haqida umumiy ma'lumot

4.5-jadval

Yo'l bo'lagi, km+ ...		Mavjud yo'l toifasi	Tasmalar soni	Joyning reliefi
Boshi	oxiri			
135,000	140,000	1 ^b	4	Tekislik

Bo'ylama nishabliklar qaydnomasi

4.6-jadval

Yo'l bo'lagining boshi, km +...	Bo'ylama nishablik, ‰
135+000	8
135+100	15
135+200	-9
135+300	-6
135+400	-2
135+500	0
135+600	2
135+700	8
135+800	4
135+900	0
136+000	0
136+100	0
136+200	0
136+300	0
136+400	6
136+500	11
136+600	18
136+700	21
136+800	22
136+900	10
137+000	-5
137+100	-13
137+200	-5
137+300	-16

137+400	-6
137+500	0
137+600	6
137+700	10
137+800	5
137+900	18
138+000	12
138+100	30
138+200	34
138+300	26
138+400	20
138+500	14
138+600	8
138+700	0
138+800	-12
138+900	-17
139+000	-8
139+100	-7
139+200	0
139+300	-3
139+400	0
139+500	0
139+600	0
139+700	4
139+800	6
139+900	5
140+000	-6

Rejadagi egri chiziqlarning radiuslari va virajlarning qaydnomasi

4.7-jadval

Yo'l bo'lagining, km+ ...		Egrilik radiusi, m	Ko'ndalang qiyalik, ‰
Boshi	Oxiri		
-	-	0	0

Ko'rinish masofalarining qaydnomasi

4.8-jadval

Yo'l bo'lagining, km + ...	Ko'rish masofasi, m
----------------------------	---------------------

Boshi	Oxiri	
135,100	135,600	300
136,700	137,300	400
137,950	139,100	350

Qatnov qismining eni, yo‘l qoplamining turi, yo‘l chetidagi mustahkam-langan tasmalar va asosiy mustahkamlangan yuzaning qaydnomasi

4.9-jadval

Yo‘l bo‘lagi, km + ...	Qatnov qismi kengligi $V_P(G)$, m	Qoplama turi	Chetki mustahkamlangan tasmalar a_u , m		Asosiy mustahkamlangan yuza kengligi $V_1(G)$, m
			Chap	o‘ng	
135+000	9,25	a/b	0,75	0,75	8,5
135+100	9,25	a/b	0,75	0,75	8,5
135+200	9,25	a/b	0,75	0,75	8,5
135+300	9,25	a/b	0,75	0,75	8,5
135+400	9,25	a/b	0,75	0,75	8,5
135+500	9,25	a/b	0,75	0,75	8,5
135+600	9,7	a/b	0,75	0,75	8,95
135+700	9,7	a/b	0,75	0,75	8,95
135+800	9,7	a/b	0,75	0,75	8,95
135+900	9,7	a/b	0,75	0,75	8,95
136+000	9,7	a/b	0,75	0,75	8,95
136+100	9,7	a/b	0,75	0,75	8,95
136+200	9,7	a/b	0,75	0,75	8,95
136+300	9,7	a/b	0,75	0,75	8,95
136+400	9,7	a/b	0,75	0,75	8,95
136+500	9,7	a/b	0,75	0,75	8,95
136+600	9,7	a/b	0,75	0,75	8,95
136+700	9,7	a/b	0,75	0,75	8,95
136+800	9,7	a/b	0,75	0,75	8,95
136+900	9,2	a/b	0,75	0,75	8,45
137+000	9,2	a/b	0,75	0,75	8,45
137+100	9,2	a/b	0,75	0,75	8,45
137+200	9,2	a/b	0,75	0,75	8,45
137+300	9,2	a/b	0,75	0,75	8,45

137+400	9,2	a/b	0,75	0,75	8,45
137+500	9,2	a/b	0,75	0,75	8,45
137+600	9,2	a/b	0,75	0,75	8,45
137+700	9,2	a/b	0,75	0,75	8,45
137+800	9,2	a/b	0,75	0,75	8,45
137+900	9,75	a/b	0,75	0,75	9,0
138+000	9,75	a/b	0,75	0,75	9,0
138+100	9,75	a/b	0,75	0,75	9,0
138+200	9,75	a/b	0,75	0,75	9,0
138+300	9,75	a/b	0,75	0,75	9,0
138+400	9,75	a/b	0,75	0,75	9,0
138+500	9,75	a/b	0,75	0,75	9,0
138+600	9,75	a/b	0,75	0,75	9,0
138+700	9,75	a/b	0,75	0,75	9,0
138+800	9,75	a/b	0,75	0,75	9,0
138+900	9,75	a/b	0,75	0,75	9,0
